

FAVQULODDA VAZIYATLARDA PROFILAKTIKA INSPEKTORINI VAZIFALARI VA UNING AHAMYATI

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 313-guruh kursanti
Yaxyoxo`jayev Jamshidbek Nurmuhammad o`g`li

Annotatsiya: *Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi, Favqulodda vaziyatlarda profilaktika inspektorini vazifasini mazmun-mohiyati va uning huquqiy asoslari shuningdek, mamlakatimizda "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ishlash faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu tamoyil asosida profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan vazifalar va huquq-majburiyatlari, favqulodda vaziyatlarda profilaktika inspektori tomonidan favqulodda vaziyatlar sabablari to'g'risida ilmiy-nazariy yondashuvlar, shuningdek profilaktika inspektorining mahalla huquq-tartibot maskanida "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ishlash faoliyati bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan.*

Annotation: *The relevance of the topic of this article, the essence of the duty of the prevention inspector in emergency situations and its legal basis, as well as the reforms implemented in our country to improve work activities based on the principle of "Safe Neighborhood", the duties and rights and obligations assigned to the prevention inspector based on this principle, scientific-theoretical approaches to the causes of emergency situations by the prevention inspector in emergency situations, as well as a number of suggestions on the activity of the prevention inspector in the local law enforcement center based on the principle of "Safe neighborhood" have been developed.*

O'tgan davr mobaynida mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi, shuningdek, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» olijanob g'oyasi asosida tubdan qayta ko'rib chiqildi.

Shundan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shu jumladan, ichki ishlar organlariga jamiyatimizda sodir bo'layotgan turli jinoyatchilikning oldini olish va ularga qarshi kurashishdek o'ta muhim va mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Ayniqsa, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni qalbiga yo'l topa bilish, ularning qalbida vatanga muxabbat, mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib asosiy maqsad - jinoyatchilik bilan bog'liq ijtimoiy-salbiy illatlarni oldini olishda turli toifadagi jinoyatchilikning oldini olishda va unga qarshi kurashishda ayniqsa jinoyat sodir etishga ko'proq moyil bo'lgan muqaddam sudlangan shaxslar bilan ishlashda profilaktikaning usul va shakllaridan unumli foydalanish va bu boradagi ishlarni takomillashtirish hozirgi zamonning asosiy talabi xisoblanadi. Bugungi kunda favqulodda

vaziyatlarni oldini olish tizimini oshirish bo'yicha profilaktika inspektorlariga ham bir qator vazifalar belgilab berildi bularga quydagilar kiradi :

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash; aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan eng muhim masalalarni ko'rib chiqish, vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining vazifalarini belgilash va qaror qabul qilish bo'yicha takliflar tayyorlash; har yili favqulodda vaziyatlarning oldini olish samaradorligini oshirishga qaratilgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi (bahor mavsumida) hamda yong'in xavfsizligi (kuz mavsumida) oyligini tashkil etish va o'tkazish; mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining avariya, halokat, tabiiy va boshqa ofatlar oqibatida jabrlangan fuqarolar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muhofaza qilish, tibbiy reabilitatsiya qilish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish; moliyaviy va moddiy resurslar davlat zaxiralarini tashkil etishni ta'minlash, shuningdek, ulardan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish borasida xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

Quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish komissiyalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'inlar profilaktikasi, xavfi yuqori bo'lgan ob'ektlarning mustahkamligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish; yong'inlar yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratuvchi sabab va omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirilishini tashkil etish; qishloq joylarda va chekka aholi punktlarida ko'ngilli yong'in bo'linmalari tashkil etilishiga, shuningdek, ularni moddiy va ijtimoiy rag'batlantirishga ko'maklashish; favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga idoraviy boshqaruv organlari, kuch va vositalar shayligini ta'minlashda ishtirok etish, ob'ektlarda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, jumladan, ob'yekt xodimlarini evakuatsiya qilish harakatlarini muvofiqlashtirish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun idoraviy moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini tashkil etish va ulardan foydalanishga rahbarlik qilish; favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholini, jumladan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda bevosita ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish; favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha joylarda olib borilayotgan ishlar samaradorligini nazorat qilish va tekshirish.

Quyidagilar shahar va tumanlar favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish komissiyalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish, avariya, halokat, tabiiy ofatlar zarari va oqibatlarini kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish; boshqaruv organlari kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlarda

harakat qilishga shayligini ta'minlashda ishtirok etish; avariya-qutqaruv tuzilmalarini, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va jabrlanganlarga yordam ko'rsatish tadbirlarini ta'minlash xarajatlarini qoplashda ishlatiladigan moliyaviy va moddiy-texnik resurslar zaxira jamg'armalarini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 10 yanvar kuni jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishning kelgusidagi ustuvor vazifalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muayyan chora-tadbirlar qatorida huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish bo'yicha «hududlar tajribasi», o'ziga xos ish usullari va metodikalarini yaratish bo'yicha tegishli topshiriqlarni berdilar. Ushbu muhim vazifalar ijrosini ta'minlash uchun fikrimizcha, ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etish va boshqarishda ularning jo'g'rofiy joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlari, kriminogen va tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda differensial yondashuvni ta'minlaydigan namunaviy modellarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday namunaviy modellarni ishlab chiqishda: ma'muriy hududning jo'g'rofiy joylashuvi (turizm hududi, chegara hududi, tog'li hudud, sanoat hududi va boshq.); hududning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlari (aholining zichligi, ko'p millatliligi, xalq xo'jaligining muayyan jabhasiga ixtisoslashganligi, aholi jalb etiladigan mavsumiy ishlarning mavjudligi, fuqarolarning ish bilan ta'minlanganlik darajasi va boshq.); kriminogen va tezkor vaziyat (jinoyatchilikning ahvoli, darajasi, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va boshq.)ni asosiy mezonlar sifatida belgilash lozim.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funksiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududda kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi. SHunday ekan, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda eng avvalo mahallada yashovchi, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarni o'rganishi zarur. Ushbu toifadagi shaxslarning muammolarini huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi tegishli idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish hamda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga,

shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslari, shu jumladan ularning huquqiy maqomi 2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunida o’z aksini topdi.

Mazkur qonunga muvofiq, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari faoliyatni profilaktika katta inspektorlari, inspektorlaridan va ularning jamoat tartibini saqlash bo’yicha yordamchilaridan iborat tarkibda amalga oshiradi. Profilaktika inspektorlari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarori bilan lavozimga tasdiqlanadi. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

SHuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni qabul qilinib, unda fuqarolar yig’ini raisining huquq-tartibot masalalari bo’yicha o’rinbosari vazifasini bajarish profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilishi, har bir mahallada uning kriminogen vaziyati va aholi sonidan kelib chiqqan holda kamida bir nafardan profilaktika inspektori xizmatni olib borishi belgilandi.

Profilaktika inspektorlari 5 yil muddatga lavozimga tayinlanishi hamda ularni mazkur muddat davomida yuqori turuvchi rahbarlik lavozimga o’tkazish yoxud qonun yoki ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortish holatlaridan tashqari boshqa lavozimga o’tkazish taqiqlanishi nazarda tutildi. Tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlari, ularning tarkibidagi bo’limlari boshliqlari ustuvorlik asosida profilaktika inspektori lavozimida kamida 5 yil ishlagan xodimlari orasidan tayinlanishi, profilaktika inspektorlari lavozimlariga, qoida tariqasida, oliy yuridik ma’lumotga ega bo’lgan shaxslar tayinlanishi yo’lga qo’yildi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, dunyoning rivojlangan davlatlarida aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashga muhim masala sifatida qaralib, ushbu sohada ichki ishlar organlarining faoliyatini, jamoatchilik bilan hamkorligini takomillashtirish, bunda zamonaviy texnologiyalar, ish usullari va modellarini tadbiiq etishga alohida e’tibor berilayotgan bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish, ularni milliy tizimimizga joriy etib borish, jumladan ular faoliyatini huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik jihatdan va kadrlar bilan ta’minlashni takomillashtirishning istiqbollari belgilab olgan holda bu borada tizimli va izchil islohotlarni davom ettirishni taqozo etadi.